

«TASDIQLAYMAN»
«UMS» MChJ Bosh direktorining
texnika va AT bo'yicha o'rinbosari
A.R. Abduraxmanov



2026-y.

Andijon shahri, Toshkent ko'chasi, 3-uy manzilida joylashgan markaziy ofisning 6/0,4 kV tashqi elektr ta'minoti bo'yicha loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish ishlarini bajarish uchun

TEXNIK TOPSHIRIQ

Toshkent – 2026-y.

MUNDARIJA

1. Umumiy ma'lumotlar	3
1.1 Bajariladigan ishlar (ko'rsatiladigan xizmatlar) nomi.....	3
1.2 Ishlarni (xizmatlarni) xarid qilish maqsadi.....	3
1.3 Xarid amalga oshiriladigan loyihani bajarish uchun asos	3
1.4 Ishlar va xizmatlar ro'yxati	3
2. Ishlarni bajarish (xizmatlar ko'rsatish) joyi. Qo'llanilish sohasi.....	4
3. Ishtirokchiga qo'yiladigan umumiy talablar.....	4
4. Ishlarni bajarish (xizmatlar ko'rsatish) muddatlari.....	5
5. Xavfsizlikka oid talablar.....	5
6. Topshirish va qabul qilish qoidalariga oid talablar.....	5
7. Kafolatlar hajmi va/yoki muddatiga qo'yiladigan talablar	6
8. Obyektga doir mutlaq huquqlarni va boshqa hujjatlarni topshirish tartibi	6
9. Xodimlarni texnik o'qitishga doir talablar	6
10. Qo'shimcha talablar.....	6
11. Qabul qilingan qisqartmalar ro'yxati.....	6
12. Ilovalar.....	6

1. Umumiy ma'lumotlar

1.1 Bajariladigan ishlar (ko'rsatiladigan xizmatlar) nomi

- Andijon shahridagi «UMS» MChJ markaziy ofisi hovlisida 2GKTP (transformatorlar quvvati loyiha bilan belgilanadi va Buyurtmachi bilan kelishiladi) o'rnatilgan holda tashqi elektr ta'minoti bo'yicha loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish.

1.2 Ishlarni (xizmatlarni) xarid qilish maqsadi

Andijon shahri, Toshkent ko'chasi, 3-uy manzilida joylashgan «UMS» MChJ markaziy ofisining ma'muriy binosini uzluksiz elektr energiyasi bilan ta'minlash.

1.3 Xarid amalga oshiriladigan loyihani bajarish uchun asos

- - 2026-yil 24-apreldagi 03401212165-sonli Texnik shart.

1.4 Ishlar va xizmatlar ro'yxati

- Loyihalash uchun zarur hajmlarda qidiruv va o'lchov ishlarining to'liq majmuasini o'tkazish.
- 2GKTP, RQKQ va DGQni qayta qurish hamda joylashtirish loyihasi tarkibini aniqlash.
- 2GKTPni markaziy ofisining ma'muriy binosi hovlisiga o'rnatish nazarda tutilsin. Panellar korpusi yong'inga chidamli materiallardan yasalishi, devorlar va 2GKTPning konstruktiv yechimi Buyurtmachi bilan kelishilishi lozim.
- Loyihada 110/6 kV "Iqbol" podstantsiyasidan chiquvchi «Xududgaz» tarmog'iga ulangan 87-sonli TPning 6 kV kuchlanishli tomonidan, shuningdek, 110/6 kV "At Termiziy" tarmog'iga ulangan 199-sonli TPning 6 kV kuchlanishli tomonidan keluvchi kabellarni yotqizish hamda Texnik shartlarga muvofiq boshqa talablarni bajarish ko'zda tutilsin.
- Monoblok har bir transformator uchun 3 ta seksiyadan (kirish, transformator va seksiyaviy) iborat bo'lishi lozim. Kuch transformatorlari blokida darvozalardagi jalyuzali panjaralar orqali shamollatishni nazarda tutish kerak. YKTQ (Yuqori kuchlanishli taqsimlash qurilmasi) va PKTQ (Past kuchlanishli taqsimlash qurilmasi) bo'linmalarini asosiy zanjirlar sxemalariga muvofiq ajratish lozim. PKTQning kuch transformatorlari bilan seksiyali ulanishini, I-II toifali ofis jihozlarini loyihada nazarda tutish va Buyurtmachi bilan kelishish kerak. Kabellar kesimi loyiha asosida aniqlansin. PKTQda AVR (Avtomatik zahirani ulash) qurilmasi nazarda tutilishi lozim. Loyihada 2GKTPning barcha qismlarida shamollatish tizimini o'rnatish ko'zda tutilsin. Taqsimlash qurilmasining ishlab chiqaruvchisini Buyurtmachi bilan kelishilishi kerak. Loyihada yerlatgich (zazimleniya) konturini o'rnatgan holda yerlanishni (zazimleniya) nazarda tutish lozim.
- Transformatorlarning neytrali to'liq yerlatgichi (zazimleniya) bo'lishi kerak.
- Loyihani kabel trassasi zonasidagi joriy geologik vaziyatga bog'lash uchun muhandislik-geologik va topografik qidiruv ishlarini amalga oshirish kerak.
- II toifali ART (Arxitektura-rejalashtirish topshirig'i)ni olish, 2GKTP, RQKQ (Reaktiv quvvatni kompensatsiyalash qurilmasi) va DGQni o'rnatgan holda tashqi va ichki energiya ta'minoti trassasi loyihasini bajarish, trassa uchun barcha zarur kelishuvlarni olish: Andijon shahar arxitektura va qurilish boshqarmasidan, energiya ta'minoti tashkilotidan; kommunikatsiya egalari va barcha manfaatdor tashkilotlardan. Loyiha-smeta hujjatlari "O'zenergoinspeksiya" DI bilan kelishilishi lozim.
- «UMS» MChJ kompaniyasining Andijon shahri, Toshkent ko'chasi, 3-uy manzilida joylashgan markaziy ofisining ma'muriy binosi uchun 2GKTPlar, RQKQ va DGQ o'rnatilgan holda tashqi elektr ta'minotini bajarish bo'yicha loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish uchun loyiha-smeta hujjatlari (LSH) ishlab chiqilsin, bunda elektr uskunalaridan foydalanish qoidalariga rioya etilishi hamda zamonaviy uskunalar, materiallar va boshqaruv vositalaridan foydalanilishi hisobga olinsin. Loyiha-smeta hujjatlari O'zbekiston Respublikasi hududida amalda bo'lgan yong'inga qarshi, sanitariya-gigiyena, ekologik va boshqa me'yorlar talablarini hisobga olgan holda, amaldagi qurilish me'yorlari va qoidalariga muvofiq bajarilishi lozim.

2. Ishlarni bajarish (xizmatlar ko'rsatish) joyi. Qo'llanilish sohasi
«UMS» MChJ markaziy ofisining ma'muriy binosi: Andijon shahri, Toshkent ko'chasi, 3-uy.
3. Ishtirokchiga qo'yiladigan umumiy talablar

LSH «Buyurtmachi» bilan kelishilishi va davlat ekspertizasidan o'tkazilishi kerak.

1.1. Loyiha-smeta hujjatlari pudratchi tomonidan qurilish-montaj ishlarini bajarishni ta'minlaydigan hajmda bajarilishi lozim. Loyiha-smeta hujjatlari quyidagi me'yoriy hujjatlarga mos kelishi kerak:

- EQQ (amaldagi nashri);
- TEQ (amaldagi nashri);
- Energetika obyektlarida elektromontaj ishlarini bajarishda xavfsizlik texnikasi qoidalari (amaldagi nashri);
- QMQ 2.01.02-85;
- QMQ 2.01.04-97;
- QMQ 2.01.05-98;
- QMQ 2.02.08-96;
- GOST. SSBT. 12.1.005-88;
- QMQ 2.04.09-84;
- QMQ 2.04.17-98;
- ShNQ 4.02.67-07;
- Boshqa amaldagi qonunchilik va me'yoriy-texnik hujjatlar.

Loyiha hujjatlarini ishlab chiqishda Ijrochi quyidagilarni bajarishi shart:

- Loyiha hujjatlarini ishlab chiqish borasida O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan talablar va qoidalarga qat'iy rioya qilish.
- O'zbekiston Respublikasi me'yorlariga muvofiq xavfsizlik talablarini inobatga olish.
- O'zbekiston Respublikasining ekologiya (AMTBni ishlab chiqish) va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi amaldagi qonun hujjatlari, me'yorlari, qoidalari va standartlarida nazarda tutilgan talablarga rioya qilish.

3.2. Bosh rejada 2GKTP va DGQ o'rnatiladigan joyni nazarda tutish.

3.3. Barcha AVRlarda har birini boshqarishning uchta usuli: qo'lda, avtomatik va masofaviy usullari nazarda tutilishi kerak.

3.4. Loyihada ulanish nuqtalaridan "UMS" MChJning loyihalanayotgan 2GKTPsigacha transformatorlarni o'rnatgan holda yuqori kuchlanishli kabel liniyasini montaj qilish va ulashni nazarda tutish.

3.5. 2GKTPdan MO binosigacha 0,4 kV kuchlanishli kabel liniyalarini montaj qilishni nazarda tutish. Shahar elektr ta'minoti uzilganda DGQdan ishlaydigan AVR o'rnatilgan holda, binoning kirish qismiga 0,4 kV kuchlanishli TKQ o'rnatilishini ko'zda tutish. TKQdan YSh, KSh va KuchSh qavat taqsimlash shitlarigacha bo'lgan ta'minotchi kabel liniyalarini kabel lotoklari va qutilari ichida o'tkazish. Loyihada barcha zarur kabel simlarini o'tkazishni nazarda tutish.

3.6. Loyihalashtirilayotgan transformator podstantsiyasini muhandislik infratuzilmasini avtomatlashtirilgan boshqarish (ASKUE), monitoring va dispetcherlik nazorati tizimlari bilan integratsiyalashni ta'minlash;

3.7. Loyiha bilan yuklamalarni aniqlash, yuklamalarning yig'ma jadvali elektr qabul qilgichlarning o'rnatilgan va hisoblangan quvvatlari (kVt) hamda to'liq quvvati (kVA) to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olishi kerak.

3.8. Yuklamalar jadvaliga muvofiq, qisqa tutashuv toklarini hisoblash, o'rnatiladigan avtomatlarning issiqlik ajratgichlari o'rnatmalarini tanlash. Eng uzoq nuqtalardagi qisqa

tutashuv toklari va uskunaning ishga tushirish toklariga muvofiq, o'rnatiladigan avtomatlarning elektromagnit ajratgichlari o'rnatmalarini tanlash.

3.8. Bosh taqsimlash shitining (BTSh) paneli yorug'lik indikatsiyasi va elektr o'lchash asboblari bilan jihozlanishi kerak. Elektr energiyasini hisobga olish (EEHNAT) asboblari alohida shitlarda loyihalashtirish lozim. Taqsimlash shitlarini loyihalashda shitlarni tok bo'yicha ta'minlovchi kabellar fazalarining yuklanishi mutanosib (muvozanatli) bo'lishi ta'minlanishi kerak. Eng ko'p va eng kam yuklangan fazalar yuklamalari o'rtasidagi farq fazaning o'rtacha yuklamasidan 10...15% dan ortiq bo'lmasligi lozim.

3.9. Loyihalashtirilgan elektr uskunalar iste'molchi uskunalarining uzluksiz ishlashini, barqaror elektr ta'minotini va ishonchli himoyasini ta'minlashi kerak.

3.10. Yerlatgich (zazimleniya) va yashindan himoya qilish tizimini ishlab chiqish.

3.11. Loyihada QMQ, GOST va O'zbekiston Respublikasining boshqa me'yoriy talablariga javob beradigan zamonaviy materiallar qo'llanilishi kerak.

3.12. Montaj qilingan uskunalarda EQO'Q (Elektr qurilmalarini o'rnatish qoidalari) talablariga muvofiq ishga tushirish-sozlash ishlarini bajarish, zarur sinov turlarini o'tkazish ko'zda tutilsin.

4. Ishlarni bajarish (xizmatlar ko'rsatish) muddatlari

4.1. Ishlarni bajarish muddati – avans to'lovi to'langan kundan boshlab 90 ish kuni.

4.2. Ishlar natijasi uchun kafolat muddati Shartnoma bilan belgilanadi va Tomonlar bajarilgan ishlarni qabul qilish to'g'risidagi dalolatnomani imzolagan kundan boshlab 12 (o'n ikki) oydan kam bo'lmasligi kerak.

5. Xavfsizlikka oid talablar

5.1. Ishlar quvvat kabellari liniyalari, yuqori kuchlanishli uskunalar o'rnatish, 2GKTP (ikki transformatorli komplekt podstantsiya), RQKQ (reaktiv quvvatni kompensatsiyalash qurilmasi) va DGQ (dizel-generator qurilmasi) o'rnatish bo'yicha ishchi hujjatlarni ishlab chiqish litsenziyasiga va tajribasiga ega bo'lgan pudratchi tomonidan bajarilishi kerak.

5.2. Kuchlanishi 0,4 kV va undan yuqori bo'lgan yuqori kuchlanishli uskunalarini (TP, RLND va h.k.) o'rnatish, shuningdek, quvvatga oid yuqori kuchlanishli va nazorat kabellarini yotqizish yuzasidan yuqori xavfli obyektlarni va potensial xavfli ishlab chiqarish obyektlarini loyihalashtirish uchun litsenziya talab etiladi.

6. Topshirish va qabul qilish qoidalariga oid talablar

6.1. Ishchi hujjatlar Buyurtmachiga 3 nusxada, qog'oz tashuvchida (broshyura qilingan holda) hamda elektron tashuvchida – USB flesh-xotira yoki diskda, AutoCAD dasturida va PDF formatida, smetalar esa Excel formatida taqdim etilishi lozim.

6.2. Loyihani ishlab chiqish bosqichidagi ishlar natijalari ishchi loyiha va loyihalashtirish ishlarini qabul qilish-topshirish to'g'risidagi imzolangan dalolatnoma shaklida rasmiylashtirilishi kerak.

6.3. Loyiha-smeta hujjatlari (LSH) Buyurtmachi «Andijon» XKMning hududiy rahbarlari (XKM (hududiy xizmat ko'rsatish markazi) boshliqlari, TB (texnik bo'lim) boshlig'i va BEG (bosh energetik guruhi) rahbari) bilan kelishilishi shart.

6.4. Ishlab chiqilgan loyiha-smeta hujjatlari Buyurtmachining mulki hisoblanadi va uning roziligisiz uchinchi shaxslarga berilishi taqiqlanadi.

6.5. Loyiha tashkiloti barcha zaruriy kelishuvlarni va ijobiy xulosalarni olishni ta'minlaydi.

6.6. Ishchi loyiha Buyurtmachi tomonidan kelishilganidan so'ng, loyiha-smeta hujjatlarini (LSH) "Shaffof qurilish" platformasiga (ekspertizaga) yuklash Buyurtmachi tomonidan amalga oshiriladi.

6.7. Ishlar faqat Ijrochi tomonidan ishlab chiqilgan loyiha hujjatlarining to'liq hajmi bo'yicha "Shaffof qurilish" tizimida ijobiy ekspertiza xulosasi olinganidan va kelishilganidan so'ng qabul qilingan deb hisoblanadi.

6.8. Barcha ruxsat beruvchi hujjatlar va "Shaffof qurilish" ekspertizasining ijobiy xulosasi

olinganidan so'ng, bajarilgan ishlar to'g'risida ikki tomonlama Dalolatnoma imzolanadi va yakuniy to'lov amalga oshiriladi.

7. Kafolatlarning hajmi va/yoki muddatiga qo'yiladigan talablar

7.1. Ijrochi loyihalashtirish bo'yicha barcha ishlar O'zbekiston Respublikasi hududida amalda bo'lgan me'yorlar va qoidalarga muvofiq bajarilganligini kafolatlaydi.

8. Obyektga doir mutlaq huquqlarni va boshqa hujjatlarni topshirish tartibi

Talab etilmaydi.

9. Xodimlarning texnik o'qitishga doir talablar

Talab etilmaydi.

10. Qo'shimcha talablar.

Loyiha-smeta hujjatlari kamida quyidagi idoralarda kelishilishi lozim:

Barcha zarur hujjatlar "O'zenergoinspeksiya" DI bilan kelishilsin.

10.1. O'zR IIV Yong'in xavfsizligi bosh boshqarmasi bilan kelishish.

10.2. Elektr ta'minoti korxonasi bilan kelishish.

10.3. Shahar issiqlik markazi bilan kelishish.

10.4. Suv ta'minoti korxonasi (Suvsoz) bilan kelishish.

10.5. Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik markazi bilan kelishish.

10.6. Gaz ta'minoti korxonasi bilan kelishish.

10.7. Aloqa va maxsus aloqa xizmati ("O'zbektelekom" AK) bilan kelishish.

10.8. "Shaffof Qurilish" LSHning davlat ekspertizasi.

10.9. ATSS ekologiyasini kelishish.

Hududlar XKM.

11. Qabul qilingan qisqartmalar ro'yxati

T/r	Qisqartma	Qisqartmaning to'liq shakli
1	UTX	Umumiy tushuntirish xati
2	ET	Elektr ta'minoti
3	YU	Yerlatgich (zazimleniya)
4	AQ	Arxitektura-qurilish qismi
5	YUKTQ	Yuqori kuchlanishli taqsimlovchi qurilma
6	PKTQ	Past kuchlanishli taqsimlovchi qurilmalar
7	ART II	Arxitektura-rejalashtirish topshirig'i
8	ShKTP	Shahar komplekt transformator podstantsiyasi
9	RKQK	Reaktiv quvvatni kompensatsiyalash qurilmalari
10	LSH	Loyiha-smeta hujjatlari
11	YOSh	Yoritish shiti
12	KSh	Konditsioner shiti
13	KSh	Kuchlanish shiti
14	SUVSOZ	Suv ta'minoti korxonasi
15	SES SSV	Sog'liqni saqlash vazirligi huzuridagi Sanitariya-gigiyena laboratoriyasi
16	HXKM	Hududiy xizmat ko'rsatish markazi

Ilovalar.

24.04.2026-yildagi 03401212165-sonli Texnik shartlar.

Ishlab chiqildi:

Yetakchi mutaxassis


Kelishildi:

Ta'mirlash guruhi rahbari

Bosh energetik o'rinbosari

Bosh energetik

LBD bo'limi boshlig'i



imzo

B.I. Mirjalolov



imzo

T.X. Nematov



imzo

B.B. Tulyaganov



imzo

Ya.S. Karabayev



imzo

B. X. Otaboyev

